

TA'LIM MUASSASSALARIDA HUQUQIY TA'LIM ZARURIYATI

Po'latov Ro'zimurod Farhod o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

E-mail: polatovrozimurod6@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lim tazimida huquqiy ta'lim va tarbiyaning ahamiyati, zaruriyligi yurtimizda amalga oshirilayotgan so'nggi islohotlar misolida tushuntirib berilgan. Mamlakatimizda tom ma'nodagi huquqiy demokratik davlat aynan yosh kadrlarning huquqiy madaniyati darajasiga bog'liqligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Huquq va burch, ta'lim muassassasi, ta'lim, tarbiya, huquqiy madaniyat, kreativ metodlar, fuqarolik jamiyati, huquqiy targ'ibot.

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается важность и необходимость правового образования и воспитания в системе высшего образования на примере реформ, проводимых в нашей стране в последнее время. В нашей стране говорят, что правовое демократическое государство в буквальном смысле зависит от уровня правовой культуры молодых кадров.

Ключевые слова Право и обязанность, образовательное учреждение, образование, воспитание, правовая культура, творческие методы, гражданское общество, правовая пропаганда.

ABSTRACT

This article explains the importance and necessity of legal education and upbringing in the higher education system on the example of the recent reforms implemented in our country. In our country, it is said that the legal democratic state in the literal sense depends on the level of legal culture of young personnel.

Key words. Right and duty, educational institution, education, upbringing, legal culture, creative methods, civil society, legal propaganda.

Mustaqillik, fuqarolik jamiyati va demokratiya tushunchalari o'rtasidagi uzviy aloqadorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, mustaqil mamlakatni demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati institutlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois yurtimizda istiqlolning ilk kunlaridanoq demokratik yangilanish, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo'li tanlab olindi. Ta'lim va tarbiya barcha davrlarda ham

taraqqiyotning harakatlantiruvchi omili vazifasini bajargan. Buni o'z vaqtida vaqtida tushungan mamlakatlarda ta'lim samaradorligi boshqa mamlakatlarni qiynayotgan ko'plab ijtimoiy muammolarning yechimi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ta'lim samaradorligi bilan o'z o'rniga ega bo'lgan Finlandiya davlatining Milliy maktablar boshqaruvi raisi Erkki Axo ta'lim jarayoni zamon talabida modernizatsiya qilishning ahamiyati haqida to'xtalib, "Globalashuv jarayoni va raqamli texnologiyalar mehnat bozoridagi ahvolni juda ham o'zgartirib yubordi, ijtimoiy va hududiy tengsizlik muammosi o'sish bilan xavf solmoqda, migratsiya an'anaviy madaniy tuzilmalarni zaiflashtirmoqda. Shuning uchun ham bizning tirik qolish strategiyamiz ta'lim manbalari va ilmiy tadqiqot ishlarimizga asoslangan holda ishlab chiqilmoqda" deya ta'kidlagan edi [1].

Huquqiy davlat – jamiyatning irodasini ifoda etuvchi va uni aks ettiruvchi, qonunning ustuvorligiga asoslangan umumiy tashkilotdir. Huquqiy davlat – huquqning hukmronligi va ustuvorligi, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi, sudning mustaqilligi ta'minlanadigan, huquqni muhofaza etuvchi organlari ishi samarali bo'lgan, haqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlat.

Huquqiy madaniyat – bu huquqiy savodxonlikdir. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish huquqiy davlatning muhim belgisi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, huquqiy madaniyatsiz huquqiy davlat bo'lmaydi. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin" kitobida: "Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga, huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdiridagina yashaydi va ro'yobga chiqadi", deb ta'kidlab o'tgan edilar.

Bugungi XXI asrda ijtimoiy munosabatlar shu darajada tezlashdiki, buning natijasida insonlarning axborotlarni qabul qilishi, bu ijtimoiy munosabatlarga huquqiy idealistik kayfiyat bilan munosabatda bo'lishlari qiyinlashib bormoqda. Bu esa barcha insonlarning amaldagi huquq me'yorlari bilan talab darajasida tanish bo'lishlarini taqozo etadi. Ayni vatqda yurtimiz ta'lim muassasalarida huquqiy ta'limning ahvoli qay darajada? Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar va ularning huquqiy asosiga keng aholi vakillari qanday munosabatda bo'lishmoqda? Bugungi huquqiy ta'limimizning jadal rivojlanayotgan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar vaqtida mahoratli kadrlar bilan qay darajada ta'minlanib kelinmoqda?

O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida mamlakatda islohotlar ko‘lami to‘g‘risida to‘xtalib davlatimiz rahbari shunday degandilar “Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarimiz natijasida Yangi O‘zbekiston shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokraik o‘zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi”[2].

Qaysi mamlakat, uning xalqi xukumat siyosatini to‘laqonli tushunib yagona maqsad bilan uni qo‘llab-quvvatlamasa, bu islohotdan ko‘zlangan vazifalar natijasi barchaga ayon. Shu bois ayni dam yurtimizda sohada kadrlar tayyorlash tizimi qayta ko‘rib chiqilmoqda. Darhaqiqat, huquqiy ta‘lim tizimida ham. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizim yetukligining ifodasi hisoblanadi. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta‘sir ko‘rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jiplashuviga yordamlashuvchi, jamiyatning yahlitligi va batartibligini ta‘minlovchi va mustahkamlovchi omil hisoblanadi. O‘rta, o‘rta maxsus, professional, oliy ta‘lim tizimidagi bugungi kundagi huquqiy fanlarning o‘qitilish jarayoni qanday? Bu holat barchani o‘ylantirishi tabiiy. Negaki ixtisoslashgan ta‘lim muassasalarida huquq fanlari 2-darajali fan sifatida qarab qolingan, va bu tabiiyki ko‘plab soha vakillarida o‘z burchini unutib qo‘yishlikka, tobora huquqiy nigilistik kayfiyat shakllanishiga zamin yaratmoqda. Axborot bilan ta‘minlanish imkoniyat ortib borishi, qulayliklarning ortishi jarayoni bilan bugungi yosh avlodning huquqiy madaniyat ko‘rsatkichlari teskari tomonga qarab o‘sib bormoqda.

Jamiyatdagi olib borilayotgan islohotlarga ko‘plab aholi qatlamlari keng qismi befarqligi, etiborsizlig bilan qarashi ham avvalo ana shu omil huquq fanlaridan yetarlicha sabob olmayotganligining salbiy oqibatlaridan deya olamiz.

Yurtimizda 1997-yilda “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” qabul qilindi, 2001-yil 4-yanvarda “O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida” gi Prezident farmoyishi e‘lon qilingan edi. 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi Prezident farmoni, 2019-yil 20-apreldagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to‘g‘risida” gi Nizomning qabul qilinishi bularning barchasi aynan huquqiy savodhonlikni yuksaltirish, tag zaminida esa mamlakatdagi keng ko‘lamli islohotlarga barchani o‘z huquq va burchlari doirasida faol ishtirokini ta‘minlash maqsadining huquqiy asosi sanaladi. 2001-yilgi Prezident farmoniga asosan barcha ta‘lim mussasalarida Konstitutsiyani o‘rganish kurslari joriy etildi. Yuqorida nomi keltirib o‘tilgan nizomda shunday deyilgan, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuklastirish bo‘yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholashning asosiy maqsadi aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir huquqiy targ‘ibot

tadbirlarini tashkil qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va amalda tatbiq etishdan iborat"[3]. Pedagogik ta'lim muassalarida yuridik ta'lim faqatgina Oliy ta'limning Huquq ta'limi yo'nalishi talabalari uchungina qoldirilgandi. Bu esa boshqa mutahassis kadrlarning jamiyatda amalda bo'lgan va yangi qabul qilinayotgan normativ-hujjatlar bilan qiziqishning pasayishiga olib kelgan edi. Bunday vaziyatda barcha soha pedagoglaridan o'z sohasiga aloqador holda masalaga kreativ yondashishni, o'rganilayotgan barcha mavzu obyektlarining huquqiy asosini ham o'rganib borish talab qilinishi zarur.

Yurtimiz iqtisodiy hayotida ham yuksak malakali yuristlarga talab ortib bormoqda. Shuni inobatga olib iqtisodiy hayotning turli bo'g'inlari o'rta va oliy ma'lumotli yurist kadrlar bilan ta'minlash mavjud huquqshunoslik kollejlari texnikunlarga aylantirildi, huquqiy ta'lim jarayoniga yanada chuqur e'tibor qaratilmoqda.

Yuridik ma'lumotga ega kadrlarning barcha soha va tarmoq tizimlarida ta'nimlanishi mamlakatimizning bugungi islohotlari tez orada o'z samarasini berishiga va aholi qatlamlarining rozilik hissi xalqimiz farovon turmushining ortishida muhim omil bo'ladi.

XULOSA

Ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim-tarbiya hamda targ'ibot ishlarida masul xodim va mutaxassislar o'z vazifalarini to'liq va kreativ holda yondoshmog'i va buning zamirida islohotlarimiz samarasi turganini yurakdan his qilmog'imiz zarur. Yosh avlodda ularning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish va har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, shuningdek, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hislarini uyg'otish bugungi kunimizda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Doniyev S.I., Ibrakhimov F.A., Joldasov I.S. Trends in the development of primary education (an example of the finnish system of primary education).Innovation in pedagogy psychology.Special issue -2 . Toshkent-2020. 392-page.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi 23.09.2020
3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitiring qilish va baholash to'g'risidagi Nizom. 2019-yil 20-aprel. (<https://lex.uz/ru/docs/-4300837>)
4. Amirov Z. "Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida" //Jamiyat va boshqaruv -2015. №3

5. Utamuradov, A., Khojiev, T., Isanova, G., & Khaytmetov, R. (2020). The Prospects of a New Template of the Modernization Uzbekistan. Jour of of Adv Research in Dynamical & Control Systems, 2(12), 2670-2676.
6. G.G.G'afforova, Z.O.Xudayorova. Yangi O'zbekistonda kreativlik inson kapitalini rivojlantirish omili sifatida . Innovative, educational, natural and social sciences, 2022
7. G.G'affarova, M.Yuldasheva. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari. Academic research in educational sciences, 2021
8. Po'latov R. F. (2023). Yosh avlodda ma'naviy axloqiy sifatlarni rivojlantirish. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 316-320.